
27 IYUN - MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN QUVASOY SHAHAR HOKIMINING TABRIGI

urmatli matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Avvalo, siz, azizlar – shahrimizdagi jurnalistlar, soha faxriylarini Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari bayrami bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lgan ommaviy axborot vositalari haqida so'z yuritganda, biz, avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik, Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan olijanob va mas'uliyatli kasb egalarini tasavvur qilamiz.

Oldimizda turgan bir-biridan muhim va dolzarb vazifalarni hal etishda, tinchlik-osoyishtalik, o'zaro hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning o'z kuchiga, ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirish, hayotimizda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, xalq manfaatining chinakam himoyachisi bo'lishda ommaviy axborot vositalari faol harakat olib bormoqda.

Biz matbuot ahlining hayotimizni yanada erkin, obod va farovon etish uchun doimo fidoyilik ko'rsatib yashashingizga ishonamiz.

Barchangizni bugungi kasb bayramingiz bilan yana bir bor samimiy qutlab, sizlarga sihat-salomatlik, ijodiy faoliyatingizda omad va yutuqlar, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Zafarjon To'raqulov,

Quvasoy shahar hokimi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-06-27 18:53:45